

MT DA MATEMATIK O'YINLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Xalilova Charos

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute Jismoniy madaniyat,
sport va maktabgacha ta'lif fakulteti 3-bosqich talabasi

Xalilovacharos64@gmail.com

Annotatsiya

Ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlanirish yoritib berilgan. Maktabgachata' ta'lif tashkilotlarida matematika mashg'ulotlari jarayonida mantiqiy o'yinlardan foydalanishning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif, elementar matematika, rivojlanish, ta'lif tarbiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19 -oktabr kuni maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ta'kidlaganidek "Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bolgan ta'lif-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lif-tarbiya -biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'gom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lif tizimidan boshlanadi" deb ta'kidlagan edi. Shu maqsadda o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirishda bu boradagi xorijning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda ta'lifning zamonaviy usullarini keng tatbiq qilish maqsadga muvofiq deb o'layman.

Matematikaga o'qitish muammosining bugungi kundagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu avvalo, matematika ta'lif sohasining shiddat bilan rivojlanayotganligi va uning turli sohalariga kirib borishi bilan tushuntiriladi. Ijodiy faoliydarajasini oshirish, ishlab chiqarishdagi avtomatizatsiya muammolari, elektron-hisoblash mashinalaridagi modellashtirish va boshqa soha mutaxassislaridan o'rganilayotgan jarayonni aniq va izchillik bilan tahlil qila olish ko'nikmasi talab qilinadi. Shuning uchun, MTTda avvalo, bolalarda tevarak-atrofdagi hodisalarini to'laqonli mantiqiy jihatdan tushuntirib bera olish ko'nikmasining shakllanishiga e'tibor qaratiladi. Maktabgacha ta'lif yoshdagi bolalarni sog'gom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ta'lif tarbiya tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, u bolani sihatsalomatlikka, to'g'ri jismoniy rivojlanishiga, yuksak madaniyatga maktabgacha ta'lif tizimida beriladigan bilimlarni chuqur o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

O'yin faoliyat sifatida matematik tasavvurlarni shakllantirish masalalarini muvaffaqiyatlari hal etadi, chunki unda nafaqat o'yin malakalari va ma'nolarining yuqori darajasiga erishishga, balki bolalarni matematik bilimlarini va amaliy tajribasini sinab ko'rishga, mashq qilishga imkon beradigan qoidalar va masalalar ishtiroy etadi.

Har bir o'yin bolaning kattalar bilan, boshqa bolalar bilan muloqotini nazarda tutadi. Bu – hamkorlik maktabi, unda u o'qiydi va tengdoshi muvafaqqiyatiga quvonadi va muvafqiyatsizliklarini mardona boshidan o'tkazadi. Bir-birining bilimlar bilan, qiziqarli ma'lumotlar bolalarni yaqinlashtiradi va ularning umumiy qiziqishlarini aniqlab beradi. Bir-biriga do'stona munosabat, qo'llab quvvatlash,

o'ylash va fantaziyaning quvonchli vaziyati –bunday sharoitlarda o'yinlar maktabgacha yoshdagilarning rivojlanishi uchun foydali bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda ba'zi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, "teng", "katta", "kichik", "butun va bo'lak" kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni, o'lchov kattaliklari bilan son o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlay bilish ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga ko'tarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni ko'z bilan hamda ichida sanashga o'rgatib boriladi. Ularning ko'z bilan chamalash, shaklni tezda farq qila bilish qobiliyati rivojlanadi.

Maktabga tayyorlov guruhida matematika bo'yicha haftasiga 2 ta mashg'ulot, yil davomida 72 ta mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotlarning davom etish muddati: birinchisi – 30 daqiqa, ikkinchisi – 20-25 daqiqa davom etadi. Matematik o'yinlar tashkil etish shakllari turlicha jamoaviy (-Tushib qolgan sonni ayting, – Nechta va qancha?) ; bolalarning unchalik katta bo'lмаган guruhi (guruhlarga faol bolalar faol bo'lмаган bolalar bilan birlashtiriladi: ular o'z o'rtoqlariga taqlid qiladilar va topshiriqlarni oson bajara boshlaydilar)(– Olmalar, –Qayer o'ng, qayer chap?) ; raqobatli (-Qaysi raqam yo'qoldi?, –Buni boshqacha bajaring). Mktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiriladigan matematik o'yinlardan namunalar:

1.Qanday raqam yo'qoldi? Jihoz. 0 dan 20 gacha raqamlar yozilgan qog'ozchalar (har bir bola 33 uchun). Bolalar juftlikda o'ynaydilar. Pedagog har bir juftga sonlarni 0 dan 10 gacha tartib bilan joylashtirishni taklif etadi. Keyin bir bola ko'zlarini yopiq holda son qatoridagi sonlarni joyini o'zgartiradi. U ko'zini ochib qatorda nima o'zganganini aytadi. Agar u topsa, yetakchiga aylanadi. O'yin shu tarzda davom etadi. Murakkab varianti. Sonli qator o'zgartiriladi, 10 dan 20 gacha sonlarni yoyish taklif etiladi.

2.Juftini top. Jihoz. Raqamlar yozilgan qog'ozchalar va doiracha chizilgan qog'ozchalar. Bolalar ikki jamoa bo'linadi. Har bir jamoada o'zining stoli bor. Bir stoldav raqamli qog'ozchalar, ikkinchisida doirachali qog'ozchalar qo'yiladi. Bolalar xona bo'ylab chopib, pedagog ishorasi bilan stoldani qog'ozchalarni oladilar, o'zining juftini topishga harakat qiladilar. Keyin hamma juftlar to'g'ri topilganligi tekshiriadi. Qog'ochalar joyiga qaytariladi va o'yin yana davom ettiriladi.

Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Oilada otiona bo'lsa, maktabgacha ta'limda albatta tarbiyachi-pedagog bo'ladi. Shuning uchun har bir pedagog bolaga matematik tasavvurlarni shakillantirar ekan, pedagogikaning nazariyasi va o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari (interfaol metodlar, individual yondashish, mustaqil shig'ullanishga o'rgatis va hk) hamda milliy istiqlol g'oyalari bilan qurollangan bo'lishlari kerak. Nazariy jihatdan to'la asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni bugungi kunda ta'lim jarayoniga qo'llash eng dolzarb masalaga aylangan.

Yuqorida aytib o'tilganlardan va bolani maktabgacha ta'lim tashkilotida o'qitishning zamonaviy maqsadlariga asoslanib, uning maktabda normal moslashishi uchun zarur bo'lgan ta'lim faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni va bolaning shaxsiyatining fazilatlarini shakllantirishni talab qildik. Demak, matematik ko'nikmalar odamning algoritmik fikrashi, algoritmik qobiliyatları va algoritmik madaniyatini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.N.Imomkulova, E.M.Mardanov "Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma, Samarqand 2022-yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev. " Erkin va farovon demokratik O'zbekiston Davlatinibirgalikda barpo etamiz" – Т.: " O'zbekiston" 2016-y -56-b.
3. Sh.M.Mirziyoyev. " Tanqidiy tahlil, qat' iy tartib-intizom va shaxsiyjavobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo' lishi kerak" . – Т.: " O'zbekiston" 2017 y.-104-b.
4. M.Jumayev " Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarnishakllantirish metodikasi va nazariyasi" Т., 2007 у.
5. Raxmonqulova " Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarnishakllantirish" , Т. 2010у
6. Бакоев, М. Т., Исмаилова, Г. С., Тащуплатова, Л. М., & Джураева, Р. А. (2022). Внедрение принципов эффективного государственного управления в интересах устойчивого развития в Узбекистане. *Право и управление. XXI век*, 17(4), 3-19.
7. Dilshod og, T. I., & Maratovna, T. L. (2023). DAVLAT IQTISODIYOTINI YANGI BOSQICHGA ERISHISHIDA "ISLOM BANK" INING AHAMIYATI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 13-17.
8. Тащуплатова, Л., & Суюнова, Ф. (2022). РАҚАМЛИ ТУРИЗМ МАМЛАКАТНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(6), 437-441.
9. Sharipova, U. A., & Zaynudinova, N. N. (2021). Nestle Scandals, Negative Impact of Conflicts to Brand Prestige. *Academicia Globe*, 2(6), 376-379.
10. Umida, S. (2023). FEATURES OF TOURISM GROWTH IN UZBEKISTAN: BASED ON FOREIGN EXPERIENCE. *World Economics and Finance Bulletin*, 29, 203-209.
11. Bakoeva, G. M. (2021). Foreign experience in applying IPO practice in Uzbekistan's securities market and potential of using derivatives. *International Relations: Politics, Economics, Law*, 2020(1), 48-57.
12. Bakoeva, G. M. (2023, August). PECULIARITIES OF THE CURRENT SITUATION OF THE BANKING IPO MARKET. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 78-81).
13. Якубова, А. Б., & Палванова, У. Б. Проблемы здоровья связанные с экологией среди населения Приаралья мақола Научно-медицинский журнал "Авиценна" Выпуск № 13. Кемерово 2017г, 12-15.
14. www.aim.uz
15. www.referat.arxiv.uz